



O'ZBEKISTONDA STARTAPLARNI MOLİYALSHTIRISH

Shoyimov Valijon Chori o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tadbirkorlik va Boshqaruv fakulteti Moliya va moliyaviy
texnologiyalar yo'nalishi 5mm-21 guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7773127>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-mart 2023 yil
Ma'qullandi: 24-mart 2023 yil
Nashr qilindi: 27-mart 2023 yil

KEY WORDS

*Startaplar, O'zbekistonda
startaplar to'g'risida qonun,
Startaplarni tashkil etishning
asosiy vazifalari, Startap-
ekotizimni, Ko'mak
dasturi, Startap viza:*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekistonda startaplarni
moliyalashtirish haqida imkoniyatlar haqida o'qib
o'rganishiz mumkin.*

Bizga ma'lumki hozirgi axborot texnologiyalari asrida hamma qanaqadir yangilik qilish bilan kata foyda olishga harakat qilmoqda. Bunda "startap"lar yetakchi o'rind aturibdi. Startap tushunchasi. "Startap" so'zi inglizcha "startup" – "startap" tushunchasidan kelib chiqadi va u endigina yaratilgan yoki yaratilish jarayonida bo'lgan kompaniyani anglatadi. Demak startaplarni yaratishdan oldin mamlakat iqtisodiyotini yaxshilab o'rganish va rivojlanmayotgan sohalarni rivojlantirish uchun yangi loyiharni ishab chiqish kerak ekan. Startaplarni moliyalashtirishda O'zbekistonda ham ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Startap loyihalarni moliyalashtirish kollegial organ qarori va buyurtmachining buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi. Startap loyihalarni moliyalashtirish buyurtmachi, talabgor va jamg'arma o'rtasida tuziladigan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Moliyalashtirilayotgan startap loyihalar ijrochi tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi, Innovatsion ishlanmanlarni joriy etish ilmiy markazi maqomini olish huquqiga ega. O'zbekistonda startaplar to'g'risida qonun qabul qilindi. Qonun loyihasiga ko'ra, startaplar xodimlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi. Startap kompaniyalar yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va boshqa soliq to'lovlaridan ozod etiladi. Qonun doirasida xorij fuqarolariga Startap vizalar berilishi ham rejalashtirilgan. Qonun startap, startap-ekotizim, startap akselerator va ko'mak dasturlariga izoh beradi. Unga ko'ra, startaplar-innovatsion tarkibiy qismlarga ega bo'lgan va yuqori tavakkalchilikka asoslangan, o'ziga xos investitsiyalarni talab qiladigan kengaytiriladigan biznes modelini izlash va amalga oshirish uchun mo'ljallangan vaqtinchalik tuzilma hisobalandi.

Bundan tashqari, qonun bilan startaplarni tashkil etishning asosiy vazifalari ham belgilab berilgan:

- a) startaplarni amalga oshirish uchun yo'nalishni, manbalarni va shartlarni tanlash erkinligi;
- b) startaplarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlaridan teng foydalanishni ta'minlash;
- c) ekologik, ilmiy, axloqiy me'yorlarga rioya qilish;
- d) inson hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kabi prinsiplar kiradi.

Startup-ekotizimni tashkil etish va rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanishi kutilmoqda:

- a) startup-ekotizimni rivojlantirish uchun qulay ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- b) ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va startup-ekotizimni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- c) startaplarni rivojlantirish va korxonalarni rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- d) startup-ekotizim ishtirokchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- e) ventchur kapital sohasini rivojlantirishga ko'maklashish va ventchur kapital tashkilotlarini startaplarga investitsiya kiritishga rag'batlantirish;
- f) startup-ekotizimni rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.
- g) Startup-ekotizimini tashkil etish, startaplarni ro'yxatga olish, monitoring qilish va rivojlantirish, shuningdek biznes-inkubatorlar va boshlang'ich akseleratorlarni sertifikatlash bo'yicha vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hisoblanadi.

Startaplar uchun ko'mak dasturi ham ishlab chiqilgan bo'lib, unda startaplar ko'mak dasturida ixtiyoriy ravishda qatnashadilar. Ko'mak dasturi bo'yicha startaplar quyidagi imtiyozlardan foydalanishlari mumkin:

- a) startup xodimlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadilar;
- b) startapning ustav kapitalidagi ulushi tashqi investorga sotilganida (cash-out), jismoniy shaxslar sifatidagi startup ishtirokchilarining daromadlariga soliq solinmaydi;
- c) kompaniya yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari umumta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi;
- d) kompaniya o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq, loyihani amalga oshirish doirasida o'z ehtiyoji uchun chetdan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab

chiqarilmaydigan asbob-uskuna, xomashyo, materiallar, reaktivlar, butlovchi buyumlar hamda qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi;

e) intellektual mulk kafolati evaziga kredit olish imkoniyati;

Ko'mak dasturidan foydalanishda cheklovlar ham mavjud. Agar jamoada bir vaqtning o'zida direktorlar kengashi a'zosi yoki boshqa kompaniyaning direktori, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi xodimi kabi xodim/xodimlar ishlasa, startap ko'mak dasturida qatnashish huquqiga ega emas. Bundan tashqari startaplarni moliyalashtirish va ularni moliyalashtirishda chet el venchur kapitalini jalb qilish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar doirasida Startap viza dasturi (Startup Visa) ham ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Startap viza — O'zbekiston Respublikasida o'z biznesini birinchi marotaba, ikki yil muddatga boshlagan, yuqori salohiyatga ega xorijiy ishbilarmonlarga, shuningdek chet el startaplari va jalb qilingan mentorlarga O'zbekiston Respublikasi startaplari o'rtasida tegishli kelishuv muddati davomida ish (biznes) vizasi uchun mo'ljallangan vizalar turidir.

Vizalar chet ellik mutaxassislarning iltimosiga binoan ularning oila a'zolariga ham (turmush o'rtoqlari / sheriklari va 18 yoshgacha bo'lgan bolalar) arizada ko'rsatilgan muddatga, amaldagi shartnomaning amal qilish muddati davomida berilishi mumkin.

Qonun loyihasida chet ellik ishbilarmonlarga, shuningdek ularning oila a'zolariga innovatsion mahsulotni yaratish yoki rivojlantirish uchun 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsat berilishi ko'zda tutilgan.

References:

1. Moliya va soliqlar Darslik B. SH. Safarov, I. I. Ayubov Toshkent-2020
2. O'zbekiston Respublikasi strartaplarni moliyalashtirish to'g'risidagi qonuni.
3. www.finlit.uz
4. www.mf.uz
5. www.minfin.uz